

## ODAM SAVDOSI BILAN BOG'LIQ JINOYATLARNING ETIMOLOGIK TAHLILI, OLDINI OLIHNING METODOLOGIK XUSUSIYATLARI VA NORMATIV HUJJATLARINING MAZMUN-MOHİYATI

**Abdugʻaniyev Akobir Akmaljon oʻgʻli**

*Oʻzbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi Jinoyatchilikka qarshi kurashish fakulteti  
“Tezkor-qidiruv faoliyati” mutaxassisligi 204-guruh kursanti*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada odam savdosi va inson erkinligini cheklash bilan bogʻliq jinoyatlar, odam savdosi jinoyatining turlari, ularning etimologiyasi, tarixiy ildizlari, ilmiy tadqiqotlar, ularda ilgari surilgan mulohazalar va takliflar, odam savdosi jinoyatining oldini olishning metodologik xususiyatlari, oldini olish boʻyicha bir qator takliflar, xalqaro hamjamiyat tomonidan eʼtirof etilgan normativ-huquqiy hujjatlarning mazmun-mohiyati, ularning mavzu qamroviga mosligi, BMT va boshqa tashkilotlarning oshkora statistika maʼlumotlari va shu kabilar haqida yoritilgan.*

**Kalit soʻzlar:** *Odam savdosi, statistika, jinoyatlarini ochish va tergov qilish, “Harakatlar strategiyasi”, ilmiy tadqiqotlar, xalqaro konvensiyalar, jinoyatlarning ochilish taktikasi, Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev, uyushgan jinoyatchilik, xalqaro hamkorlik, tarixiy faktlar, «Odam savdosiga qarshi kurashish toʻgrisida»gi qonun, odam savdosining turlari, odam savdosining shakllari, xulosa.*

Dunyoda bugun odam savdosi borgan sari keng tarqalib borayotgan, shaxsning daxlsizligi, ozodligi va erkinligiga, jamiyatning maʼnaviy negizlari va insoniyat xavfsizligiga tahdid solayotgan, ijtimoiy xavfi keskin ortib, transmilliy va transchegaraviy xususiyat kasb etayotgan jinoyat sifatida tavsiflanmoqda. Xalqaro hamjamiyat tomonidan kompleks chora-tadbirlar qoʻllanilayotganiga qaramay, mazkur jinoyatning uyushgan guruhlar tomonidan sodir etilishi koʻpayib, latentlik darajasi ortib bormoqda. Odam savdosi jabrlanuvchilarini himoyalash mexanizmlari yetarli rivojlanmagani bois ushbu jinoyatga qarshi kurashish xalqaro muammoga aylanmoqda. Jumladan, statistik maʼlumotlarga qaraganda, soʻnggi yillarda odam savdosi jabrdiydalarining 64 foizi mehnat ekspluatatsiyasiga duchor etilgan boʻlsa, 9 foizidan shaxvoniy maqsadlarda foydalanilgan, qolganlari esa boshqa shakllardagi qullikka duchor etilgan. Jabrdiydalarning 71 foizini ayollar va qizlar, 29 foizini esa erkaklar va oʻgil bolalar tashqil etgan.

Jahonda odam savdosi jinoyatlarini ochish va tergov qilishni takomillashtirish, jumladan, tergovga qadar tekshiruv oʻtkazish, dalillarni aniqlash va toʻplashda zamonaviy texnologiyalar, nebotlapning yangi taktik usul va imkoniyatlaridan samarali foydalanish, odam savdosi bilan bogʻlik, jinoyat ishlarini tergov qilish usullarini yanada rivojlantirish boʻyicha ilmiy- tadqiqotlarga alohida eʼtibor qaratilmoqda. Bu borada odam savdosining kriminalistik tavsifini shakllantirish va

takomillashtirish, jinoyat sodir etgan shaxslarning aybini isbotlash imkoniyatlarini kengaytirish, jabrdiydalarning huquq va erkinliklarini ta'minlash bilan bog'liq milliy qonunchilik hamda huquqni qo'llash amaliyotida uchrayotgan nazariy va amaliy muammolarning yechimini topish alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Respublikamizda odam savdosi jinoyatlari jabrdiydalarining huquq va erkinliklarini ishonchli kafolatlash, jinoyat ishlarini tergov qilish tartib-taomillarini takomillashtirish maqsadida keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida «...jinoyatchilikning boshqa shakllariga qarshi kurashish bo'yicha tashqiliy-amaliy chora-tadbirlarni kuchaytirish» vazifasi belgilangan. Bu esa odam savdosi jinoyatini bir necha bosqichda sodir etiladigan, keng tarqalayotgan, transmilliy va transchegaraviy xususiyatga ega ijtimoiy xavfli qilmish sifatida o'rganish, uni tergov qilish xususiyatlarini chuqur tadqiq etish, amaldagi qonunchilik normalarini tahlil qilish, bu boradagi hamkorlikni tizimlashtirish, jinoyat uchun javobgarlikning muqarrarligini ta'minlash mexanizmini yanada takomillashtirishga qaratilgan kompleks ilmiy tadqiqotlar o'tkazishni taqozo etmokda.

Birlashgan Millatlar Tashqilotining Odam savdosi va fohishalikning uchinchi shaxslar tomonidan ishlatilishiga qarshi kurash to'g'risidagi konvensiyasi (1950). Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash to'g'risidagi konvensiya (2000) hamda Odam savdosi, ayniqsa ayollar va bolalarni sotishining oldini olish hamda unga chek qo'yish va uning uchun jazolat haqidagi protokol (1997), O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi (1994), Jinoyat-protsessual kodeksi (1994). «Odam savdosiga qarshi kurash to'g'risida»gi 2008-yil 17-apreldagi O'RQ-154-son qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 21-oktyabrdagi «Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-4850-son, 2017-yil 7-fevraldagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi PF-4947-son, 2017-yil 30-noyabrdagi «Sud-tergov faoliyatida fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolatlarini kuchaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF-5268-son farmonlari, 2018-yil 14-maydagi «Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-3723-son qarori va sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri bo'lib kelmoqda. Amaliyotda ushbu qonunchilik normalarining buzilishi ko'p bora kuzatilmoqda. Bir jinoyatni IIO lari xodimlari sodir etishiga chek qo'ymas va uni oldini olmas ekan, kelgusida ular ildiz otib yanada ko'payishiga sabab bo'ladi. Bu esa o'z navbatida xalq tilidan aytganda “Jilovini qo'ldan chiqardi”,-degani singari nazoratga olish ham tobora mushkullashib boradi.

Yuqoridagi kabi holatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish uchun odam savdosi bilan bog'liq jinoyatlarning kriminologiyasi, rivojlanish shart-sharoitlari, ularning profilaktika usullari bo'yicha tadqiqotlarni ko'paytirishni maqsadga muvofiq

deb hisoblayman. Bu borada ham bir muncha samarali tadqiqot jarayonlari olib borilgan. Jumladan, mazkur mavzuni tadqiq etish jarayonida respublikamiz olimlaridan G'.Abdumajidov odam savdosining ijtimoiy xavfi va oqibatlarini, Z.X.Gulyamov va R.Kabulov odamlardan foydalanish uchun ularni yollash jinoyati va uni kvalifikatsiya qilish xususiyatlarini, M.X.Rustamboyev O'zbekiston Respublikasida odam savdosi uchun jinoiy javobgarlik masalalarini, M.A.Rajabova odam savdosiga oid qonunchilik va javobgarlik masalalarini, A.O.Sharafutdinov odamlarni shahvoniy yoki boshqa maqsadlarda yollash, odamlar trafigi bilan bog'liq muammolarni, H.Sh.Hamrayeva ayollar trafiginini bartaraf etishning xalqaro huquqiy muammolarini, Q.R.Abdurasulova ayollar jinoyatchiligining jinoyat-huquqiy va kriminologik jihatlarini, N.B.Qurbonov odamlardan foydalanish uchun yollash jinoyatida javobgarlik masalalarini, I.Yu.Fazilov odam savdosiga qarshi kurashishning jinoyat-huquqiy va kriminologik jihatlarini, G.A.Matkarimova transmilliy uyushgan jinoyatchilik sifatida odamlar trafigining xalqaro-huquqiy jihatlarini, J.Ne'matov O'zbekiston Respublikasida noqonuniy migratsiya muammolari va odam savdosining kriminologik holatini, A.S. Yakubov esa bunday jinoyatlarning sabablarini tadqiq etganlar. Bundan tashqari, chet el olimlaridan Anthony DiStefano, Bales Kevin, Yvonne C. Zimmerman, N. Matiada, K. Maltzahn, M. Mann, K. Siddharth, R. Parrenas. Louise 1 Shelley, Chin Kolin, Hepburn Stephanie, MDH mamlakatlari olimlaridan V.V. Agafonov, D.I. Astapkin, M.Yu. Buryak, Ye.V. Yevstifeeva, L.D. Yeroxina, S.Yu. Juravlev, Yu.A. Karmazin, A.II. Krasikov. V.V. Lunev, Ye.B. Mizulin, A.M. Pigaev, F.L. Sinitsin, S.V. Shamkov, I.Ch. Shushkevich va boshqalarning uyushgan jinoyatchilik hamda odam savdosiga qarshi kurashning jinoiy-huquqiy, kriminologik va kriminalistik jihatlariga bag'ishlangan ilmiy ishlarida bu jinoyatga qarshi kurashish turli masalalariga e'tibor berilgan. Bu esa odam savdosining umumbashariy muammo sifatida yechim topilishi zarur ekanligidan dalolat beradi.

Odam savdosi bilan bog'liq bo'lgan ko'plab jinoyatlarning ochilish taktikasi e'tibor beriladigan bo'lsa, quyidagilarni asosiy omillardan biri sifatida kiritishimiz mumkin.

*Jumladan:*

odam savdosi insonning ozodligi va erkinligiga doir huquqlarini poymol etadigan,

jabrdiydalarning salomatligi va mamlakat genofondiga jiddiy tahdid qiladigan, tazyiq va zo'ravonlikka asoslangan,

salbiy ijtimoiy xulq-atvorning keng tarqalishiga sabab bo'ladigan ijtimoiy xavfli qilmish ekanligi asoslantirish;

odam savdosi jinoyatlarini ochishda jabrlanuvchilarning yollangan joyi, vaqti, ularni yollagan shaxslar, ularning tanishlik darajasi, ularga taklif etilgan ish yoki xizmatning, O'zbekistondan chiqish uchun tanlangan transport vositasining turi, chegaradan o'tish joyi va usulining, xorijiy davlatda amalga oshirilgan harakatlar,

ekspluatatsiyaning turi, muddati, usul va xususiyatlari, O‘zbekistonga kaytish yo‘li, vositasi va boshqa holatlar qonuniy yoki noqonuniyligishi isbotlash kerakligi asoslab berilishi;

odam savdosi bilan bog‘liq jinoyatlarning kriminalistik tavsifini shakllantirishda uning tarkibiga jabrdiydalarni aniqlash, yollash, jinoyatning sodir etilish sharoitlari, vaqti, joyi, bunda qo‘llanilgan usullar, tajovuz obyekti, jinoiy guruhning turi va shakli, ishtirokchilar soni, shuningdek jinoyatchilarni shaxsini tavsiflovchi holatlar, jabrdiyda haqidagi ma‘lumotlarni kiritish lozimligi asoslantirilganligi;

uyushgan jinoiy guruhlar tomonidan sodir etilgan odam savdosi jinoyatlarini ochishda ushbu guruhlar tarkibida ishtirokchilarning tutgan o‘rni, roli, mazkur jinoyatlarni sodir etishda yollash, tashish, topshirish va ekspluatatsiya qilish bosqichlarining vaqti, joyi va usuli, jinoiy guruh a‘zolari orasida vazifalarning taqsimlanishi hamda guruh a‘zolari har birining jinoiy faoliyatini ketma-ketlikda, ularning jinoiy aloqalar, yaqin aloqalar sxemalarini tayyorlash tartibi va o‘ziga xos usullarini qo‘llash zarurligi asoslab berilishi va shu kabi muhim jihatlarga e‘tibor berish maqsadga muvofiqdir.

Odam savdosi bilan bog‘liq jinoyat ishlarini tergovga qadar tekshiruvni amalga oshirishda dalillarni aniqlash, qayd etish va to‘plash maqsadida tezkor-qidiruv tadbirlari o‘tkazish taktikasining yangi usullarini ishlab chiqib, ularni amaliyotga tatbiq etiladigan bo‘lsa tezkor vakillarga bir qator qulayliklar yaratiladi.

Odam savdosiga qarshi kurashishning kriminalistik jihatlari tadqiq etish asosida odam savdosi bilan bog‘liq jinoyatlar bo‘yicha tergovga qadar tekshiruvni tashqil qilish, birlamchi va keyingi tergov harakatlarini o‘tkazish, odam savdosi jinoyatlarni sodir etgan shaxslarning ekstraditsiya qilinishini takomillashtirishga xizmat qiladigan amaliyot hamda nazariyaning uyg‘unligini inobatga olgan umumiy tavsiyalarni ishlab chiqilishi maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, odam savdosiga qarshi kurash bo‘yicha mamlakatimiz huquqni muhofaza qilish organlarining xorijiy davlatlar tegishli organlari bilan hamkorligini takomillashtirish lozim bo‘lib, AQSh, Kanada, Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Xitoy, Yaponiya va shu singari ilg‘or mamlakatlarni jinoyatlarni ochish usullarini amaliyotimizga kiritish va ular bilan muntazam aloqalarni ta‘minlash joiz.

Odam savdosi jinoyatlariga qarshi kurashning ijtimoiy-huquqiy shartlanganligi

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 25-moddasiga muvofiq yashash huquqi har bir insonning uzviy huquqidir. Inson hayotiga suiqasd qilish eng og‘ir jinoyatdir.

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning maqsadi haqida so‘z yuritib: «...Har bir hududdagi vaziyatni, avvalo, farmon va qarorlar ijrosini, ularning samaradorligini doimiy ravishda o‘rganib, bu borada davlat organlari mas‘uliyatini oshirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqadigan tizimni shakllantirishimiz kerak», deb ta‘kidlagandi.

Oxirgi yillarda jamiyat hayotining barcha sohalarida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilib bu borada ijobiy natijalarga erishilmoqda. Fuqarolarimizning xorijiy mamlakatlarga chiqishlari uchun katta imkoniyatlar yaratilganligi bois yildan-yilga ko‘proq yurtdoshlarimiz chet davlatlarda bo‘lib qaytmoqda.

Ammo, afsuski ayrim fuqarolarimiz xorijga chiqish borasida yaratilgan qulayliklarni suiiste‘mol qilib, chet mamlakatlarga borish qoidalarini buzish, u yerda bo‘lishlari davomida noqonuniy tarzda xususiy shartnomalar asosida ishlash uchun yollanish, fohishalik va qo‘shmachilik qilish bilan shug‘ullanmoqdalar, ushbu maqsadlarda odamlarni aldab, respublikamizdan olib ketilmoqdalar, moddiy manfaatdorlik evaziga xalqimiz sha‘niga putur yetkazmoqdalar. Xalqaro ekspertlarning baholashicha, dunyo bo‘yicha odam savdosidan tushadigan yillik daromad 7 mlrd AQSh dollaridan oshmoqda.

BMTning ochiq ma‘lumotlariga ko‘ra, dunyoda har yili taxminan 2 mln 700 ming inson odam sadosi qurboniga aylanmoqda: 600 mingdan 800 minggacha ayol va bolalar aldov yo‘li bilan chet ellarga olib ketilib, sotib yuborilmoqda.

Hozirgi kunda odam savdosi bilan bog‘liw jinoyatlar butun dunyo ahlida, jahon jamoatchiligida jiddiy tashvish va xavotir uyg‘otmoqda. Eng achinarlisi, bu jinoyatni sodir etuvchilarning ham, bundan jabr ko‘ruvchilarning ham ma‘lum bir o‘rinlarda muddaolari mushtarak. Yana ham aniqrog‘i, oson yo‘l bilan daromad topish istagida jinoyat sodir etish ikkala toifadagi odamlarni ham og‘ir oqibatlar va halokatga duchor qilmoqda. Aytish joizki, keyingi yillarda odam savdosi jinoyati tufayli yuzaga kelayotgan global xavf qanchalik kuchayib borayotgan bo‘lsa, dunyoning qator mamlakatlarida bu jinoyatga qarshi kurashishiga qaratilgan chora- tadbirlar ko‘lami ham shunchalik kengayib bormoqda.

Odam savdosi bir necha asrlardan buyon davom etayotgan muammo bo‘lib, uning ilk kurtaklari Rim quldorlik davlatida paydo bo‘lgan. U yerda insonlarga ochiqdan-ochiq huddi buyum kabi munosabatda bo‘lishgan: ularni almashishgan, qarzga, garovga berishgan, majburiy mehnatga yollashgan va hatto sotishgan ham. Bu o‘sha davr quldorlik tuzumining o‘ziga xos jihati bo‘lib, oshkora amalga oshirilgan.

Aslida, odam savdosi insoniyat uchun yangilik emas, dunyo odamlarni qul qilib sotish va ishlatishdek bir necha asrlar hukm surgan murakkab jarayonni ham boshidan o‘tkazgan. U davrlarda ayollardan cho‘ri, shuningdek kanizak sifatida, haramlarni to‘ldirish maqsadlarida foydalanishgan. Ular borgan davlatlarda, respublikalarda ham ahvol bundan yaxshi emas, iqtisodiy parokandalik u yerda ham mavjud edi. Shu tufayli boshqa yurtlarga borganlar ushbu vaziyatlardan foyda ko‘rishni istaganlarning qo‘liga tushib, ular nima ish buyursa o‘shani qilishga, qayerga boshlasa, o‘sha yoqqa borishga majbur bo‘ldilar. Bir tomondan, kutilmagan va kuchli mehnat migratsiyasi oqimining shakllanishi, boshqa tomondan esa ushbu holatni tartibga soluvchi huquqiy mexanizmning talabga javob bermasligi g‘ayriqonuniy ravishda chet davlatlarga chiqishlar ko‘payib ketishiga olib keldi.

Mehnat faoliyatini amalga oshirish maqsadida bir davlat fuqarosining boshqa davlat hududida qonunga xilof ravishda ishlashi vijdotsiz ish beruvchilar uchun to'siq bo'la olmadi, balki «tadbirkorlik» nuktayi nazaridan foydali hisoblandi. Chunki, birinchidan, xorijiy davlat fuqarosining ish kuchi mamlakat fuqarosinikidan ancha arzon bo'ladi: ikkinchidan, bu faoliyat davlatning soliq siyosatidan chetda qoladi.

Xorijiy ish kuchi hisobidan mablag' tejalishi natijasida ish beruvchilarning daromadi ko'payib, rivojlangan davlatlarda g'ayriqonuniy migrantlarga talab ancha otdi. Ushbu omildan «samarali foydalanilganida» katta daromad olish mumkinligi jinoyatchilik olamida ham tez orada e'tirof etildi. Natijada, iqtisodiyotning globallashuvi, shu jumladan, «xufiyona iqtisodiyot»ning kuchayishi natijasida jahon hamjamiyatining odam savdosi nomli yangi **jinoiy transmilliy biznes** bilan to'qnashuv jarayoni tezlashdi.

• **Jamiyatda ijtimoiy axloqning inqirozini mazkur jinoyatning sababi sifatida ko'rsatish mumkin.**

U dunyoning ko'plab rivojlangan mamlakatlarida hozir ham davom etmoqda. Xususan, fohishabozlik (jumladan, qo'shmachilik) ning legallashtirilishi, ko'pchilik xorijiy ommaviy axborot vositalarida ifodalangan «seksizm» xolatlarining yoyilishi jinsiy extiyojni qondirish xizmatlariga talabning ortishiga, bu esa, o'z navbatida, odamlardan shahvoniy maqsadlarda foydalanishning ko'payishiga olib keldi.

Odam savdosi bilan bog'liq jinoyatlarning so'nggi yillarda tez sur'atlar bilan o'sishi muayyan sabablarga egaligi qator omillar bilan izohlanadi. Agar transmilliy uyushgan jinoyatchilik g'ayriqonuniy qurol- yarog' savdosi yoki giyohvandlik bilan bog'liq jinoyatlarni sodir etishda jahon hamjamiyatining qattiq qarshiligiga duch kelsa, odam savdosiga qarshi kurash borasida bunday hamkorlik qilishning har doim ham iloji bo'lmaydi. Chunki odam savdosi jabrdiydalarining ko'pchiligi, o'ziga nisbatan jinoyat sodir qilingani to'grisida xabar berish, huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan aloqada bo'lib, jinoyatchilarni topish va jazolash faoliyatida ishtirok etishdan qochishadi.

*Buning sabablari:*

- birinchidan, javobgarlikka tortilishdan cho'chish,
- ikkinchidan, jinoyatchilarning qasd olishidan qo'rqish:
- uchinchidan, huquqni muhofaza qiluvchi organlarga nisbatan ishonchsizlikdir.

Bularning barchasi, tabiiyki, mazkur jinoiy biznesni tobora xavfsiz qilib, uyushgan jinoyatchilarni «jonli tovar» bilan qayta-qayta oldi-sotdi qilishga undaydi. Ba'zan u yoki bu mamlakatda odam savdosi vujudga kelishining o'ziga xos sabablari ham bo'lishi mumkin. Masalan, ayrim musulmon davlatlarida odam savdosi asosiga qurilgan jinoiy biznesning paydo bo'lishi va keng tarqalishi quyidagilar bilan bog'liq jinsiy nomutanosiblik, qadimdan shakllangan ayollarga bo'lgan shafqatsiz munosabat, tez-tez bo'lib turadigan qurolli to'qnashuvlar, shuningdek, yaqin-yaqingacha qulchilikning amalda bo'lganligi, mazkur davlatlar hududida yashovchi xalqlar

turmush tarzining bir qismiga aylanganligi". Davlat miqyosidagi siyosiy beqarorlik, tizginsiz korrupsiyaning mavjudligi odam savdosi bilan shug'ullanuvchi uyushgan jinoiy guruhlar faoliyatining rivojlanishini ta'minlovchi kuchli omillardan hisoblanadi.

Shunday qilib, odam savdosining paydo bo'lishi va keng miqyosda rivojlanishi bir-ikkita sababning emas, balki dunyoda kechayotgan salbiy jarayonlarning mahsulidir.

Bu kabi jinoyatlar sonining ko'payishi, butun dunyoda mazkur jinoiy biznesning «gullab-yashnayotgani» bu xavfli jinoiy fenomenga qarshi kurashish maqsadida xalqaro miqyosda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar yetarli emas, deyishimiz uchun asos bo'la oladi. Odam savdosining ijtimoiy xavfliligi, ushbu hodisaning vujudga kelishi va keng tarqalishi sabablarining yaqqol ko'rinib turgani va dolzarbligi unga qarshi kurash mexanizmining nafaqat xalqaro miqyosdagi, balki har bir davlat uchun alohida va samarali tizimini yaratish zarurligidan dalolat bermoqda.

Odam savdosiga qarshi kurash tarixiga nazar tashlasak, XIX asr oxiri va XX asr boshlarida ayollarning Yevropadan Amerika va Shimoliy Afrika qit'alariga keng ko'lamli migratsiyasi hamda ayollarni Yevropaga sotish hodisasi kuzatilganiga guvoh bo'lamiz. «Oq qullik» nomini olgan bu xodisaga barham berish maqsadida Parijda 1902 va 1910-yillarda ikkita Konferensiya o'tkazilib, qullikka qarshi kurash bo'yicha xalqaro konvensiyalar qabul qilingan. Keyinchalik u Ayollar va bolalar savdosini tugatish hamda Voyaga yetgan ayollar savdosiga barham berish nomli butunjahon konvensiyalari bilan to'ldirilgan. Odam savdosi va 3 fohishalikni yo'qotish konvensiyasida avvalgi hujjatlarning ayrim normalari o'zgartirilgan.

Mazkur muammoga qarshi kurashishning keyingi tarixiy jarayonlari sekin-asta rivojlana borib, 1948-yilda Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilingan. So'ngra Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi hamda Fuqarolarning iqtisodiy va ijtimoiy huquqlari to'g'risidagi xalqaro paktlar bilan to'ldirilgan. Undan keyin yana bir kator hujjatlar Inson huquqlari Yevropa konvensiyasi, Qullik haqidagi konvensiya, Qullikni yo'qotish amaliyoti to'g'risidagi qo'shimcha konvensiya, Bola huquqlari to'g'risidagi va Ayollarni kamsitishning har qanday ko'rinishlariga qarshi kurash to'g'risidagi konvensiyalar kabul qilingan. Ular umumjahon ahamiyatiga ega bo'lib, dunyoning ko'plab mamlakatlarida sekin-asta amalga kiritila boshlagan.

Odam savdosining kuchayib borayotgani barcha mamlakatlar kabi bizning davlatimizni ham qattiq tashvishga solmoqda. Ayni paytda transmilliy uyushgan jinoyatchilikning uzviy tarkibiy qismi bo'lgan ushbu jinoyat dunyo miqyosida keng tarqaldi. BMT hamda Migratsiya bo'yicha xalqaro tashkilot mutaxassislarining tahliliy xulosalariga ko'ra, undan jabr ko'rganlar soni bir necha millionni tashkil etmoqda. De Paulo nomidagi Inson huquqlarini o'rganish butunjahon institutining ma'lumotlariga qaraganda faqatgina jinsiy qullik uchun har yili dunyoda 2 mln ayol va bola sotiladi.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan keyin jamiyat hayotining barcha sohalarida huquqiy islohotlar amalga oshirilmogda. Jumladan, hozirgi kunda dolzarb masalalardan biri bo'lgan odam savdosining oldini olish va unga qarshi kurashish

borasida muayyan choralar ko‘rilmogda. Avvalo, bu davrda mazkur jinoyatlarga barham berishning huquqiy normativ-huquqiy bazasi shakllantirildi.

Odam savdosiga qarshi kurashish maqsadida O‘zbekiston Respublikasining 1994-yil 22-sentyabrda qabul qilingan Jinoyat kodeksida ilk bor bunday harakatlar uchun jinoiy javobgarlik belgilandi. Shu bilan birga, odam savdosi transmilliy, yani hudud va chegara tanlamaydigan jinoyat ekanligi hisobga olinib, respublikamizda bunday salbiy holatlarga qarshi kurashish borasida xalqaro hamkorlikka alohida e‘tibor qaratilmoqda. 2003-yil 12-dekabrda davlatimiz BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1950-yilda qabul qilingan “Odam savdosi va fohishalikning uchinchi shaxslar tomonidan ishlatilishiga qarshi kurash to‘grisida” gi konvensiyaga qo‘shildi. Shuningdek, mamlakatimiz parlamenti tomonidan BMT Bosh Assambleyasining 2000-yil 15-noyabrdagi rezolyutsiyasi bilan qabul qilingan “Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash to‘grisidagi konvensiyaga hamda Odam savdosi, ayniqsa, ayollar va bolalarni sotishning oldini olish, unga chek qo‘yish va buning uchun jazolash to‘grisidagi qo‘shimcha protokollar ham ratifikatsiya qilindi. Ayniqsa, odam savdosi jinoyatidan jabrlanganlarning 80 foizini ayollar va yosh bolalar tashkil qilayotgani tashvishli holdir.

Keyingi paytlari yurtimizda insonlar trafigi, ya‘ni odamlarning (jumladan ayollar va bolalarning) xorijiy davlatlarga qul kabi sotib olib borilishi muammosiga hukumat miqyosida jiddiy e‘tibor berilmoqda. Zero, mutaxassislar odam savdosining avj olishi muayyan millatning kelajagi, sihat-salomatligi, ma‘naviyati, ruhiyati, bir so‘z bilan aytganda, genofondiga tajovuz ekanligini ta‘kidlashmoqda.

2008-yil 17-aprelda «Odam savdosiga qarshi kurashish to‘grisida» O‘zbekiston Respublikasining qonuni qabul qilinishi bilan mamlakatimizda ushbu global muammoga qarshi kurashish va undan jabrlanganlarni himoyalash uchun huquqiy asoslar yaratildi. Shu bilan birga, odam savdosi jinoyatlarining uyushgan guruhlar, jinoiy uyushmalar tomonidan sodir etilishi ko‘paymoqda. Odam savdosi katta daromad keltirishi bois ko‘pgina jinoiy guruhlar boshqa faoliyatini tark etib, mana shu ishga «kallasi» bilan sho‘ng‘ib ketmoqdalar. O‘zbekiston Respublikasida jinoyat ishlari bo‘yicha sudlar tomonidan ko‘rilgan ishlar o‘rganib chiqilganida mazkur jinoyat ishtirokchilikning quyidagi shakllari orqali sodir etilganini ko‘rishimiz mumkin: murakkab ishtirokchilik 28%; uyushgan guruh tomonidan 42%; jinoiy uyushma tomonidan 10% ini tashkil etar ekan. Biz tahlil qilgan jinoyat ishlari materiallari ham ushbu ma‘lumotlarning asosligini tasdiqladi. 2008-yil 17-aprelda «Odam savdosiga qarshi kurashish to‘grisida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining qabul qilinishi munosabati bilan Jinoyat kodeksiga qo‘shimcha va o‘zgartishlar kiritildi. Yangi tahrirdagi Jinoyat kodeksining 135-moddasida nazarda tutilgan qilmish shaxsning erkinligi, sha‘ni va qadr-qimmatiga tajovuz qiladi, jabrlanuvchining hayoti yoki sog‘ligining xavfsizligi qo‘shimcha obyekt sifatida namoyon bo‘ladi.

Ko‘pgina ayollar, yosh qizlar, voyaga yetmaganlar ushbu jinoyat jabrdiydalariga aylanib bormoqdalar. Shuni alohida qayd etish lozimki, zamonaviy tarixning qisqa



davri mobaynida mazkur jinoyatdan jabrlanganlariga munosabat ijobiy tomonga o'zgarib bormoqda. Mazkur o'zgarishlar odam savdosidan jabrlanganlarning nafaqat ijtimoiy, balki huquqiy maqomi ham oshishiga olib kelmoqda. Ularga katta e'tibor, diqqat va hurmat bilan munosabatda bo'lish to'g'risidagi rivojlangan dunyo birinchi navbatda va hamkorlikda qabul qilgan prinsip ko'ndalang qilib qo'ygan.

Odam savdosi ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va boshqa omillar bilan chambarchas bog'liq bo'lgan yoki bevosita ular ta'sirida yuzaga keladigan murakkab ijtimoiy hodisa. Mazkur omillarning aksariyati odam savdosining alohida ko'rinishlarigagina ta'sir qiladi. Lekin odam savdosining hamma jihatlarini qamrab oluvchi va uning barcha bosqichlarida ishtirok etuvchi omillar ham anchagina. Odam savdosi yuzaga kelishidagi ana shunday omillardan birining mazmuni shundan iboratki, jinoyatchilar avval-boshidanoq odamlarning xorijga ketish orzusidan foydalanishga harakat qiladilar, ularni bu yo'lda aldaydilar, darhol nazoratiga olishga harakat qiladilar, ular bilan hamkorlik qilishga va'da beradilar. Natijada aldangan shaxslar o'zlari buni istamagan holda butunlay boshqa mintaka, boshqa davlatga borib qoladilar.

Odam savdosining yuzaga kelishida mahalliy shart-sharoit bilan bog'liq omillar ham mavjud. Ularga, masalan, qashshoqlik, jabr-zulm, inson huquqlarining poymol etilishi, ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlarning yo'qligi, turli mojarolar va boshqalar kiradi. Siyosiy beqarorlik, militarizm, fuqarolar tartibsizliklari, ichki qurolli nizolar yoki tabiiy ofatlar odam savdosining ko'payishiga sabab bo'ladi. O'z-o'zidan, bunday omillar insonlarning odam savdogarlari qo'lga tushishida «yetaklovchi kuch» bo'lib xizmat qiladi. Masalan, «boylik» va «kambag'allik» kabi nisbiy tushunchalar insonlar migratsiyasi va odam savdosi yuzaga kelishida katta rol o'ynaydi. Insonlar kambag'allik unchalik sezilmaydigan boshqa yurtlarga ko'chib ketishga harakat qiladilar. Ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlardagi ommaviy radioeshittirishi vositalari, telekommunikatsiya, shuningdek Internet insonlarning boshqa yurtlarga ketish ishtiyoqini yanada kuchaytirmoqda.

Ayrim davlatlar madaniyatidagi urf-odatlar ham odam savdosiga o'z hissasini qo'shmoqda. Masalan, jamiyatda ayollar va qizlarning kamsitilishi, kambag'al oilalardagi bolalarning boy, o'ziga to'q karindoshlar, do'stlarga berib yuborilishi ana shular jumlasidandir. Ayrim ota-onalar nafaqat pul topish ilinjida, balki o'ziga to'q oilada yashasa kelajagi yorug' bo'ladi, degan umidda o'z farzandlarini sotib yubormoqdalar. Odamlar, ayniqsa ayollar va bolalar savdosi, ayrim mamlakatlarda shunchalik keng tarqalganki, hatto millat genofondiga, binobarin, milliy xavfsizlikka chinakam xavf sola boshladi. Bunday vaziyatda har qanday rivojlangan mamlakat mazkur turdagi jinoiy faoliyatga qarshi kurash uchun barcha zaruriy choralarni ko'rishi shart va O'zbekiston xam bundan mustasno emas. Sababi, bunday salbiy holatlar respublikamizda ham mavjud. Fuqarolarimiz turli aldov va firibgarliklar ta'sirida odam savdosidan jabr tortmoqdalar. O'zbekiston fuqarolari fohisha sifatida foydalanish uchun asosan Birlashgan Arab Amirliklari, Qozog'iston, Rossiya, Tailand, Turkiya, Hindiston, Isroil, Malayziya, Janubiy Koreya, Yaponiya va Kosta-Rika

davlatlariga, majburiy mehnat yoki xizmat ko'rsatish uchun esa Qozog'iston va Rossiyaga olib ketilmoqda. «Odam savdosiga qarshi kurashish to'g'risida» qonun qabul qilinishi bilan mamlakatimizda odam savdosiga qarshi kurashish kuchaytirildi, odam savdosidan jabrlanganlarni himoyalaniishi huquqiy asoslari yaratildi. Ushbu qonunda odam savdosiga qarshi kurashi bo'yicha idoralararo komissiyalar hamda odam savdosi jabrdiydalarini himoyalash va ularga yordam ko'rsatish masalalari alohida belgilab qo'yildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-martda qabul qilgan «Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-2883-son qarori bilan yuqorida keltirilgan qonun normalari amalda tatbiq etila boshladi. Respublika Idoralararo komissiyasining yangi tarkibi tasdiqlandi va ish rejasi ishlab chiqildi. «Odam savdosiga qarshi kurashish to'g'risida»gi qonunda berilgan ta'rifga ko'ra, odam savdosi kuch bilan tahdid qilish yoki kuch ishlatish yoxud boshqa majburlash shakllaridan foydalanish, o'g'irlash, firibgarlik, aldash, hokimiyat vakolatini suiiste'mol qilish yoki vaziyatning qaltisligidan foydalanish orqali yoxud boshqa shaxsni nazorat qiluvchi shaxsning roziligini olish uchun uni to'lovlar yoki manfaatdor etish evaziga og'dirib olish orqali odamlardan foydalanish maqsadida ularni yollash, tashish, topshirish, yashirish yoki qabul qilishni o'z ichiga oladi.

«Jinoyat kodeksiga sharhlar» (Professor M.X. Rustamboev) da berilishicha, odam savdosi insonni olish, sotish, ya'ni u (odam)ning sotuvchiga berilgan pul yoki boshkacha mulkiy ekvivalent (ko'char yoki ko'chmas mulk, mulkiy manfaat, mulkiy yoki pul qarzidan voz kechish) evaziga sotib oluvchining egaligiga o'tishini anglatadi.

Huquqshunos M.A. Rajabovaning fikricha, o'tgan asrdan XXI asrga transmilliy uyushgan jinoyatchilikning uchta eng xavfli turi meros bo'lib o'tdi.

*Bular:*

- 1) terrorizm va din niqobi ostidagi zo'ravonlik, kuch ishlatish, ya'ni ekstremistik, fundamentalistik va separatistik xurujlar;
- 2) narkobiznes;
- 3) odam savdosi, trafik bilan shug'ullanuvchi yirik-yirik jinoyatchi tashqilotlar faoliyati.

Ushbu transmilliy jinoyatchilik turlari haqida so'z yuritishdan avval «odam savdosi» tushunchasiga to'xtalib o'tish maqsadga muvofiq. Bu borada huquqshunos olimlar tomonidan turlicha ta'riflar keltirilgan.

L. Repiskayanish fikriga ko'ra, odam savdosi shaxsni sotib olish yoki unga qarshi qaratilgan boshqa qonunga xilof bitimlarni, shuningdek shaxsni qo'lga kiritish va undan har qanday daromad olish uchun foydalanish va nazorat ostiga olishni yoki har qanday shaklda ekspluatatsiya qilish maqsadida va ayirboshlashni bildiradi. Odam savdosi muammosini chuqur o'rgangan nemis olimi Leo Kaydel esa u uyushgan jinoyatchilik faoliyatining asosiy turlaridan biri hisoblanib, jinoiy faoliyat pillapoyasida beshinchi o'rinni egallashini bildirgan.

Biz A.O. Sharofutdinovning ushbu jinoyatlarning sodir etilishi nafaqat jabrlangan shaxs sha'ni va qadr-qimmatini poymol qiladi, balki davlatimizning xalqaro miqyosdagi obro'-e'tiboriga ham katta putur yetkazadi, degan fikrlariga to'liq qo'shilamiz.

Mazkur jinoiy faoliyatning motiv va maqsadi g'araz, ya'ni moddiy foyda yoki daromad ko'rish. Chunki odam savdosidan ko'zlangan asosiy maqsad jinoyatchining o'zi yoki boshqa shaxslar orkali pul yoki boshqa moddiy boyliklarga ega bo'lishdir. Odam savdosi uni olish-sotish yoxud undan foydalanish maqsadida yollash, tashish, topshirish, yashirish yoki qabul qilish kabi harakatlarni o'z ichiga oladi. Sh.Abdusalimovning yozishicha, «odam savdosi insonlarni huquq va erkinliklaridan mahrum qiladi, butun dunyoda uyushgan jinoyatchilikning rivojlanishiga sabab bo'ladi. Shu jumladan, bu jinoyat shaxslarga xavf tug'dirish yo'li bilan qo'rqitish, jismoniy va ruhiy tazyiq o'tkazish, nomusga tegish, hujjatlarni o'g'irlash orqali amalga oshiriladi». T. Dolgolenkonish fikriga ko'ra, odam savdosi alohida shaxsni (yoki guruhni) yollash, bir davlat chegarasi doirasida yoki chegarasidan tashqariga olib ketish bilan bog'liq barcha harakat yoki maqsadlar bo'lib, u sotish, sotib olish, topshirish, bunday harakatlarni foyda ko'rish yoki shunchaki shaxsni keyinchalik aldab yoki majburlab (zo'rlik ishlatib yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitib), shuningdek xizmat mavqeini suiiste'mol qilish yo'li bilan ishlatish maqsadida ushlab turish, shuningdek uning xohishiga qarshi holda qulchilik sharoitida (haq to'lash-to'lmasligidan qat'i nazar) ushlab turishni ham qamrab oladi".

Dunyo hamjamiyati tarixda qolib ketgan qadimgi dunyo illati bo'lmish bu muammoning XXI asrda qayta tug'ilgan va daxshatli kuch bilan rivojlanib borayotganini, unga qarshi kurash juda og'ir kechayotganini tan olishga majbur bo'lmoqda. Odam savdosi quyidagi shakllarda namoyon bo'lishi mumkin:

**Majburiy mehnat** (mamlakatimiz fuqarolari majburiy mehnat yoki xizmat ko'rsatish uchun asosan Qozog'iston va Rossiya olib ketilmoqda);

qullik (1956-yilgi Qulchilikni, kullarni sotish va qulchilikka o'xshash odatlar va institutlarni tugatish to'g'risidagi qo'shimcha konvensiyada bayon etilishicha, qul savdosi boshqa bir shaxsni qulga aylantirish, unga suiqasd uyushtirish va bunday xatti-harakatlarni sodir etishda sherik bo'lish, erksiz holdagi shaxslarni mayib-majruh etish va ularga tamg'a bosishni o'z ichiga oladi);

**Fohishabozlik** (O'zbekiston fuqarolari fohishalik uchun asosan BAA, Tailand, Turkiya, Hindiston, Isroil, Malayziya, Janubiy Koreya, Yaponiya va Kosta-Rikaga olib ketilmoqda);

**Majburiy donorlik; Harbiy to'qnashuvlarda foydalanishi** va x.k.

Odam savdosini asosiy va eng xavfli shakllari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- 1) jinsiy ekspluatatsiya obyekti sifatida ayollar savdosi;
- 2) jinsiy ekspluatatsiya obyekti sifatida bolalar savdosi;
- 3) majburiy mehnat obyekti sifatida odam savdosi;

4) odamning tabiiy organlarini ajratib olish (transplantatsiya) maqsadlarida odam savdosi.

Odam savdosiga oid jinoyat ishlarini o'rganish shuni ko'rsatdiki, shahvoniy yoki boshqa g'araz maqsadlarda yollangan ayollarning asosiy qismi Birlashgan Arab Amirliklari, Saudiya Arabistoni, Turkiya va Xitoy davlatlariga yuborilgan. Fukarolarimiz chet mamlakatlarga tranzit davlatlar Qirg'iziston, Qozog'iston, Rossiya, Ukraina, Armaniston va Ozarbayjon Respublikalari orqali olib chiqilmoqda. Bu esa bugungi islohotlar zamonida mamlakat rahbarlari tomonidan xalqaro hamkorlikni kuchaytirish bo'yicha olib borayotgan islohotlarining samarasini "0" ga tenglashtiryapti yohud xalqaro hamkorlik natijasida erishilayotgan yutuqlar imkoniyatlaridan foydalanishga sharoit yaratmayotgandek.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, odam savdosiga qarshi kurashishni takomillashtirish, bu borada yangicha usullarni ishlab chiqish, tezkor-qidiruv tadbirlarining samaradorligini oshirish bo'yicha yangiliklar kiritish va ularni amaliyotga tatbiq etish orqali ushbu jinoyatga bir muncha bo'lsada barham berishimiz va profilaktika qilishimiz mumkin. Bu borada oldimizda quyidagi vazifalar turibdi deyishim mumkin.

*Jumladan*

- odam savdosiga qarshi kurashning ijtimoiy-huquqiy asoslarini o'rganish, mazkur jinoyatlarni kriminalistik jihatdan tavsiflash va huquqiy tahlil qilish,
- odam savdosiga qarshi kurashning xalqaro-huquqiy tartibga solinishi va xorijiy mamlakatlarning bu boradagi tajribasini o'rganish,
- odam savdosi to'g'risidagi ariza va xabarlar bo'yicha tergovga qadar tekshiruv o'tkazish va jinoyat ishi qo'zg'atishning o'ziga xos jihatlarini tadqiq etish,
- odam savdosi yuzasidan qo'zg'atilgan jinoyat ishlari bo'yicha tipik tergov vaziyatlari va aniqlanishi lozim bo'lgan holatlar doirasini, tergov tasmollari ishlab chiqilishi va dastlabki tergov yo'nalishlarini belgilash masalalarini o'rganish;
- odam savdosi bilan bog'liq jinoyat ishlari bo'yicha birlamchi va kelgusi tergov harakatlarini o'tkazish xususiyatlarini yoritishi;
- tezkor vakillar va tergovchining odam savdosi jabrlanuvchilariga yordam ko'rsatishi xususiyatlarini aniqlashtirish, shuningdek mazkur jinoyatlarni tergov qilishda xorijiy davlatlarning tegishli xalqaro muassasalar bilan hamkorlik masalalarini yoritish,
- amaliyot nuqtayi nazaridan olib qaraganda, tezkor vakillar va tergovchilarning amaliy ish tajribalaridan kelib chiqib qo'llaniladigan hamda odam savdosining oldini olishga qaratilgan huquqiy va protsessual choralarni qo'llashni takomillashtirishga, shuningdek, ularni tez va to'la ochishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Yuqoridagi kabi vazifalarni amalga oshirar ekanmiz, bu sohada ham yutuqlarga erishib, kamchiliklarimizga barham berishimiz mumkin.